



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 21-yanvar

21-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyat hokimining 2025-yil 15-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 30-dekabrda 914-son qarori ijrosi haqida” 18-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi va “Yaylovlar to‘g‘risida” gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, viloyatda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanishning samarali tashkil etish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 15-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 30-dekabrda 914-son qarori ijrosi haqida” 18-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 914-son qarori bilan:

Belgilanishicha:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanilganligi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarining yer tuzish va yerdan foydalanish bo‘yicha xodimlari tomonidan aniqlanishi;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan yerlarni almashlab ekish rejasiga hamda yaylovlar almashinishi rejasiga muvofiq yerdan foydalanuvchilar tomonidan oqilona foydalanilishi;

tuman (Quvasoy shahar) hokimliklariga O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining tuman (Quvasoy shahar) bo'limlari xulosasiga asosan yerdan foydalanuvchilarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibiga rioya qilmaganligi hamda yerning normativ qiymatidan kelib chiqqan holda, yer uchastkasining ijara muddatiga hisoblangan qo'shimcha to'lovlarni to'lamaganligi uchun ularning yerga bo'lgan ijara huquqini bekor qilish yuzasidan sudga to'g'ridan- to'g'ri da'vo arizasini kiritish huquqi berganligi;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda uch oy muddatda:

“E-ijara” axborot tizimida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini baholash va uning natijasi bo'yicha xulosani shakllantirishning elektron tizimini yaratishi;

ushbu qarorning mazmun-mohiyati va ahamiyatini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanuvchilar o'rtasida keng tushuntirilishini ta'minlashi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 914-son qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kirishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'ining yer masalalari bo'yicha o'rinbosari (A.Bo'ronov), Kadastr agentligining tuman bo'limi (A.Shodmonov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda “E-ijara” axborot tizimida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini baholash va uning natijasi bo'yicha xulosani shakllantirishning elektron tizimini yaratish yuzasidan takliflar ishlab chiqib, o'rnatilgan tartibda tuman hokimligi bilan kelishgan holda Qishloq xo'jaligi boshqarmasiga taqdim etilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'ining yer masalalari bo'yicha o'rinbosari (A.Bo'ronov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 914-son qarori ilovaga muvofiq Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom talablari asosida ishlarni tashkil qilsin.

har yili 10-fevralga qadar yerdan foydalanuvchilar kesimida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan (shu jumladan, yaylovlardan) oqilona foydalanish holatini o'rganish bo'yicha kalendar rejalarni ishlab chiqib, tasdiqlasin hamda [www.agro.uz](http://www.agro.uz) rasmiy saytiga joylashtirish uchun Qishloq xo'jaligi boshqarmasiga o'rnatilgan tartibda taqdim etib borsin.

5. Tuman qishloq xo'jaligi bo'limlarining xulosasiga asosan yerdan foydalanuvchilarining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibiga rioya qilmaganligi hamda yerlarning normativ qiymatidan kelib chiqqan holda, yer uchastkasining ijara muddatiga hisoblangan qo'shimcha to'lovlarni to'lamaganligi uchun ularning yerga bo'lgan ijara huquqini bekor qilish yuzasidan sudga to'g'ridan-to'g'ri davvo arizalar kiritish huquqi berilganligi inobatga olinsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari – tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**